

O‘ZBEKISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BILAN SAVDO IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARI VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI

Nusratulloev Shaxzod Amonjon o‘g‘li

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
magistratura bosqichi, xalqaro munosabatlar va jahon siyosati yo‘nalishi
2-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy manfaatlariga asoslanib, ochiq va o‘zaro foydali tashqi siyosat yuritadi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy strategiyasi global va mintaqaviy vaziyatning tezkor o‘zgarishi hamda ichki o‘zgarishlardan kelib chiqib shakllanadi. O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi va Yevropa mamlakatlari bilan keng ko‘lamli hamkorlikka katta ahamiyat beradi. Yevropa davlatlari bilan hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari savdo, investitsiyalar va moliya, zamonaviy texnologiyalarni transfer qilish, ilm-fan, ta‘lim, ekologiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston, shu bilan birga, Yevropaning yetakchi davlatlari, jumladan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: Yevropa Ittifoqi, Yevropa davlatlari, rivojlanish, siyosat, hamkorlik, do‘stona munosabatlar, hamkorlik, xalqaro maydon, sheriklik, shartnoma, qo‘shma organ, import, eksport, investitsiya.

ABSTRACT

The Republic of Uzbekistan pursues an open, mutually beneficial and constructive foreign policy based on its national interests. The modern foreign policy course of the republic is based on the rapidly changing situation in the world and in the region, as well as large-scale changes within the country. Uzbekistan attaches great importance to mutually beneficial cooperation with the European Union and European countries. The main areas of cooperation with European countries are trade development, investment and finance, transfer of modern technologies, science, technology, education, environment, health, culture and regional security. Uzbekistan pays special attention to enhancing bilateral cooperation with advanced European countries, in particular Germany, France, Great Britain, Belgium, Italy, Spain, Latvia and others.

Keywords: European Union, European countries, development, policy, cooperation, friendly relations, cooperation, international arena, partnership, agreement, joint body, import, export, investment.

KIRISH

O‘zbekistonning turli qit’alardagi ko‘plab davlatlar va uyushmalar bilan aloqalari sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tdi. Bojxona boshqaruvi sohasida bojxona to‘lovlari stavkalari ikki barobarga kamaytirildi, 3 ming 550 nomdagi mahsulotlar va 1 ming 122 turdagi mahsulotlarga aksiz solig‘iga import bojlarining nol stavkalari joriy etildi. 2016-2020-yillarda barcha manbalar hisobidan asosiy kapitalga 89 mlrd dollarlik investitsiyalar kiritildi, ulardan 19,5 mlrd dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 2021 yilga nisbatan 32,1 foizga o‘shib, 1,3 milliard dollarni tashkil etib, eksport 979,3 million dollar, import esa 280,7 million dollarni tashkil etdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasida Qozog‘istonning ulushi 62 foizni, Qirg‘iziston 17 foizni, Turkmaniston 12 foizni va Tojikiston 9 foizni tashkil etadi. Transport va logistika sohasidagi hamkorlik katta ahamiyatga ega. “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish va “Andijon – O‘sh – Irkishtom” avtomobil yo‘lini to‘liq ishga solish bo‘yicha qo‘shma transport-logistika kompaniyasini tashkil etish bo‘yicha kelishuvlar mavjud. Energetika sohasida hamkorlikka alohida e‘tibor qaratildi, GES-1 qurilishi kabi gidroenergetika loyihalarini amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi.

2022 yil yakunlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi 1,3 milliard dollarni (o‘shish 32,1 foiz) tashkil etib, eksport hajmi 979,3 million dollar, import hajmi esa 280,7 million dollar bo‘ldi. Shunga qaramay, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida hal qilinishi kerak bo‘lgan bir qancha muammolar mavjud.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 9-martda Tojikistonga bo‘lgan tashrifi davomida chegara muammolarini hal qilishga qaratilgan kelishuv imzolandi. Shuningdek, 2023-yil boshida Qirg‘izistonga davlat tashrifi chog‘ida tomonlar o‘zaro munosabatlarni yangi darajaga olib chiqish borasida muvaffaqiyatga erishgani ta’kidlandi. O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi chegarani delimitasiya qilish ishlarining tamomlanishi tarixiy voqea sifatida baholandi. Markaziy Osiyo hududida chegaralarni delimitasiya va demarkasiya qilishda muhim muammo, mintaqaning barcha mamlakatlari tomonidan tasdiqlangan huquqiy asosning yo‘qligidir.

Shuningdek, Rog‘un GESi Tojikiston va O‘zbekiston o‘rtasida bir necha yillar davom etgan suv mojarosining sababi bo‘ldi. Dushanbe administratsiyasi 2018-yil oxirigacha Rog‘un GESi uchun uch agregatni ishga tushirishi haqida xabar berdi. Biroq, yirik GESlarni qo‘shnilar ishtirokisiz qurish mojaro potensialini oshishiga olib kelmoqda, bu esa ekstremistik kuchlarning faollashishi xavfini yaratadi. Ularning har qanday foydasi qo‘shnichilik aloqalari o‘rnini bosishi mumkin emas. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar sababli, Tojikiston va Qirg‘izistonda to‘g‘onlar gidroenergetik salohiyatidan

foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda, bu esa suv oqimi nazoratining siyosiy vosita sifatida ishlatilishi xavotirini keltirib chiqaradi. O‘zbekistonda va Qozog‘istonda esa suv resurslaridan oqilona foydalanish tartibini joriy etish zarurligi oshkor. Orol dengizining qurishi bu masalani yana bir bor ta’kidlab turibdi.

Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishi masalasi ham ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqadagi suv resurslarining 90 foizi sug‘orma dehqonchilik uchun ishlatiladi, bu esa qishloq xo‘jaligini muhim ehtiyojga aylantiradi. Qishloq xo‘jaligi sektorining YAIMdagi ulushi 10 foizdan 45 foizgacha bo‘lgan qismini tashkil qiladi. Kelajakda suv manbalarining kamayishi tahdidi yuzaga kelishi mumkin, chunki muzliklar Markaziy Osiyo suv resurslarining asosiy manbai hisoblanadi va ularning kismini Tojikistonga to‘g‘ri keladi. Muzliklar regional suv resurslarining 60 foizini tashkil etadi. Ob-havo o‘zgarishlari bilan bog‘liq ravishda suv resurslarini boshqarish masalasi dolzarbligini yo‘qotmaydi, shuning uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari bu masalani yuqori darajada ko‘rib chiqib, zarur dastur va strategiyalar ishlab chiqishi shart.

2022-yil 17-18-noyabr kunlari Samarqand shahrida “Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo” mavzusidagi tadbirlar o‘tkazildi. 17-noyabrda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoda barqaror energiya rivojlantirishga bag‘ishlangan yangi loyihasi doirasida davra suhbatlari va “Markaziy Osiyo yoshlari ovozi” forumi o‘tkazildi. 18-noyabrda esa “Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘zaro bog‘liqligi: barqaror rivojlanish uchun global darvoza” shiori ostida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konferensiya qatnashchilariga murojaatnomasini tashqi siyosiy masalalar bo‘yicha maxsus vakili Abdulaziz Komilov o‘qib eshittirdi. Prezident o‘z murojaatida bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, global iqtisodiy beqarorlik va zamonaviy tahdidlar mintaqalar va davlatlar o‘rtasida hamjihatlik va o‘zaro manfaatli sheriklikni kengaytirishni taqozo qilayotganini ta’kidladi.

Markaziy Osiyoning xavfsizlik va barqarorligini ta’minlash, tahdidlarni oldini olish uchun samarali mexanizmlar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir. Bu mexanizmlar mintaqada davlatlarida fan-texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash bilan birga amalga oshirilishi lozim. Muammolarni hal qilishda hamkorlikdan foydalanish g‘oyasi, yangi imkoniyatlar eshigini ochadi va hamjihatlikda muammolar yechimini topish imkoniyatini yaratadi.

Geosiyosiy vaziyat o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi sababli, davlatlar ko‘p tomonlama siyosat yuritishga intilmoqda. Mintaqada yetakchi davlatlar manfaatlarining to‘qnashuvi natijasida regional birlashuv amalga oshishiga to‘sqinlik qilmoqda. Siyosatchilar buni mintaqada yirik davlatlar manfaatlari to‘qnashadigan hudud sifatida ko‘rib, bu holat muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi haqida fikr bildirmoqdalar. Shuning uchun mintaqaviy muvozanatni saqlash uchun bir-biriga yordam berish va harakat qilish muhimdir.

Germaniya bilan aloqalar keng qamrovli va an'anaviy ravishda rivojlanmoqda, hamkorlik ko'plab sohalarni qamrab oladi. Mamlakatlar o'rtasida mustahkam qonunchilik bazasi mavjud va yuqori darajadagi siyosiy muloqot doimiy ravishda davom etmoqda. 2019-yilning yanvar oyida O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Germaniyaga tashrifi davomida bir qator muhim uchrashuvlar bo'lib o'tdi. 2019-yil may oyida Germaniya Prezidenti ham O'zbekistonga tashrif buyurdi va muzokaralar o'tkazildi.

O'zbekistonda nemis madaniyati va tiliga katta qiziqish mavjud, nemis tili eng mashhur ikkinchi chet tili hisoblanadi. Oliy ta'lim sohasida Germaniyaning 30 dan ortiq universitetlari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi amalga oshirilmoqda. Toshkent va Berlin, Buxoro va Bonn, Samarqand va Bremen o'rtasidagi sheriklik aloqalari madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli savdo rejalari o'rnatilgan. 2019-yilda Yevropa davlatlari bilan savdo aylanmasi 4,0 milliard AQSh dollarsini tashkil etdi. Bu yil ichida eksport 574,5 million AQSh dollarini, import esa 3,42 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasidagi savdo hajmi 2016-yilga nisbatan deyarli 60 foizga o'sdi va Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi asosiy savdo-iqtisodiy sheriklaridan biri bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Mamlakatimiz Yevropa bilan ikki va ko'p tomonlama istiqbolli munosabatlarni davom ettiradi. Savdo-sotiq, investitsiya va moliya, yuqori texnologiyalar transferi, ilmfan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash va madaniyat sohalaridagi hamkorlik, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash O'zbekiston — Yevropa munosabatlarining asosiy ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan— yilga mustahkamlanib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Закон Республики Узбекистан «О внешнеэкономической деятельности». // Экономика и право, 2000. Вып. 10.
2. Sh. F. Shamsutdinova, F.Sh. Shamsutdinov – “Chet el mamlakatlar soliq tizimi” – 2011
3. A. Smith – “An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations” – 1776

4. O. Olimjonov - “Bozor iqtisodiyotiga o’tish davrida soliq siyosati” – 19924.
5. Данные Статкомитета Республики Узбекистан.
6. Акрамов Э. Турецкая модель социально-экономического развития. // Экономика и статистика, -Ташкент, 1993, -№4.
7. www.mfer.uz - O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining rasmiy sayti.

